



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 2

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London, 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





QOZILIK MAHKAMASI HUJJATLARINING TARIXIY-HUQUQIY TALQINI

Karimov Kaxramon Sadikovich - Qo'qon davlat universiteti dotsenti, Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: gahramonjob876@umail.uz, Тел: +998905886488

<https://orcid.org/0009-0006-2397-8572>

Аннотация. Maqolada qozilik mahkamasi hujjatlarining manbaiy va institutsional xususiyatlari ilmiy tahlil qilinadi. Arxiv va qo'lyozma manbalar asosida ahdnomalar, iqror xatlari, talxatlar, vasiqalar va vaqfnomalarning tashkiliy-huquqiy mazmuni hamda ularning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi o'rni ochib beriladi. Tadqiqot jarayonida hujjatlarning rasmiylashtirish qoidalari, huquqiy kuchga ega bo'lish shartlari, shuningdek qozilik mahkamasining sud va notarial funksiyalari kompleks tarzda yoritiladi. Shu bilan birga, hujjatlarning jismoniy saqlanish holati, ularni ilmiy tavsiflashda qo'llaniladigan metodologik yondashuvlar hamda arxiv manbalarining cheklanganligi sharoitida qo'lyozma materiallarning ahamiyati tahlil etiladi. Olingan natijalar qozilik institutining Sharq jamiyatida huquqiy tartibni ta'minlash, mulkiy va shaxsiy huquqlarni himoya qilishda muhim institutsional tizim sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: qozilik mahkamasi, hujjatli manbalar, ahdnomalar, vaqfnomalar, iqror xatlari, huquqiy interpretatsiya, arxiv hujjatlari, institutsional tahlil, sud-notarial amaliyot, Sharq huquqiy tizimi

Introduction (Kirish). Hujjatli manbalar tarixiy tadqiqotlar tizimida bayoniy yozma manbalarni qo'shimcha ravishda boyituvchi vosita sifatida emas, balki tarixiy voqelikni aniqlashtirish, tekshirish va ayrim hollarda ilmiy xulosalarni qayta baholash imkonini beruvchi asosiy empirik manbalar qatlami sifatida qaraladi. Ular orqali tarixiy jarayonlarning tashkiliy-huquqiy mohiyati, ma'muriy boshqaruv amaliyoti va ijtimoiy munosabatlar tizimini ilmiy asosda tiklash mumkin.

O'zbekiston hududida shakllangan tarixiy hujjatlar majmuasi miqdoriy va mazmunij jihatdan yirik ilmiy resurs sifatida e'tirof etiladi. Ushbu manbalar davlat boshqaruvi, huquqiy tartib va iqtisodiy munosabatlarning turli davrlardagi holatini aks ettiradi.

XIX asr ikkinchi yarmida Qo'qon xonligidagi siyosiy inqiroz arxiv merosining saqlanishiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatib, manba bazasida sezilarli bo'shliq yuzaga keltirgan. Shu sababli arxiv hujjatlari bilan bir qatorda qo'lyozma kitoblar ham alohida manbaiy ahamiyat kasb etadi.

Materials and Methods (Materiallar va metodlar)

Tadqiqotda arxiv hujjatlari, qo'lyozma manbalar, qozilik mahkamasiga oid huquqiy yozuvlar asosiy material sifatida olindi. Ularni tahlil qilishda:

manbaiy tahlil,
institutsional yondashuv,
tashkiliy-huquqiy modellashtirish,
matnshunoslik va paleografik kuzatuv





usullaridan foydalanildi.

Hujjatlar mazmuni, shakli, til xususiyatlari, rasmiylashtirish me'yorlari va huquqiy funksiyasi kompleks tarzda o'rganildi.

Results (Natijalar). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, respublika arxivlari, ilmiy fondlar va muzey jamlanmalarida yer munosabatlari, sug'orish tizimi, mulkiy bitimlar va ular bilan bog'liq sud amaliyotini aks ettiruvchi hujjatlar salmoqli o'rin egallaydi. Jismoniy-huquqiy hujjatlar asosan mulkni sotish, sotib olish, ijara va ipoteka munosabatlarini rasmiylashtirishga qaratilgan.

Vaqf hujjatlari esa diniy muassasalarni moddiy ta'minlash, vaqf mulklarini ijaraga berish va daromadlar hisobiga xizmatchilarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yoritadi. Bu holat vaqf institutining ijtimoiy-iqtisodiy funksiyaga ham ega ekanini tasdiqlaydi.

Qozilik mahkamalarida yer ijarasi, meros taqsimoti, nikoh va ajralish, vasiyatnomalar, vasiylik, xayriya mablag'lari hisoboti kabi masalalar tizimli ravishda ko'rib chiqilgan. Hujjatlar qat'iy shakliiy talablar asosida rasmiylashtirilgan va qozining muhri bilan tasdiqlangan.

Discussion (Muhokama). Hujjatli manbalar tarixiy tadqiqotlar tizimida faqat bayoniy yozma manbalarni qo'shimcha ravishda boyituvchi material sifatida emas, balki tarixiy voqelikni aniqlashtirish, tekshirish va ayrim hollarda ilmiy xulosalarni qayta baholash imkonini beruvchi asosiy empirik manbalar qatlami sifatida qaraladi. Ushbu manbalar orqali tarixiy jarayonlarning tashkiliy-huquqiy mohiyati, ma'muriy boshqaruv amaliyoti va ijtimoiy munosabatlar tizimi ilmiy asosda tiklanadi.

O'zbekiston hududida shakllangan tarixiy hujjatlar majmuasi miqdoriy va mazmuniy jihatdan yirik ilmiy resurs sifatida e'tirof etiladi. Mavjud ekspert baholashlariga muvofiq, ushbu hujjatlar fondi yuz ellik mingdan ortiq birlamchi yozma materiallarni o'z ichiga olib, ular turli davrlardagi davlat boshqaruvi, huquqiy tartib va iqtisodiy munosabatlarni aks ettiradi.

Sharq qo'lyozma va hujjatli merosni saqlash hamda ilmiy muomalaga kiritishga ixtisoslashgan ilmiy muassasalar fondlarida qo'lda yozilgan tarixiy-bayoniy asarlar bilan bir qatorda amaliy-huquqiy xarakterdagi noyob hujjatlar ham jamlangan. Jumladan, Markaziy Osiyoning turli hududlari bilan bog'liq XV–XX asrlarga oid o'n mingga yaqin asl hujjatlar saqlanib, ular tashkiliy-huquqiy munosabatlarning tarixiy rivojini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur hujjatlar tarkibiga vaqf munosabatlarini tartibga soluvchi rasmiy yozuvlar, ma'muriy yorliqlar, savdo va iqtisodiy bitimlar, ipoteka va ijara shartnomalari, sud da'volari hamda boshqa huquqiy mazmundagi hujjatlar kiradi. Ularning ilmiy tahlili tarixiy jamiyatda huquqiy ong, boshqaruv madaniyati va institutsional tizimning shakllanish qonuniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, XIX asr ikkinchi yarmida Qo'qon xonligidagi siyosiy inqiroz jarayonlari arxiv merosining tizimli saqlanishiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Xususan, 1875-yil iyun oyida markaziy hokimiyat zaiflashgan bir sharoitda hukmdorning Qo'qondan chiqib ketishi natijasida davlat arxivining yo'qolib





ketishi tarixiy manba bazasida jiddiy bo'shliq yuzaga keltirgan. Keyinchalik aniqlangan ayrim hujjatlar muayyan ilmiy qiymatga ega bo'lsa-da, ular Qo'qon xonligi siyosiy, ma'muriy va ijtimoiy tizimini to'liq rekonstruksiya qilish uchun yetarli emasligi bilan tavsiflanadi.

Shu sababli, Qo'qon xonligi tarixini chuqur va tizimli o'rganish jarayonida hujjatli arxiv manbalari bilan bir qatorda qo'lyozma kitoblar alohida manbaiy ahamiyat kasb etadi. Bunday qo'lyozmalar davlat boshqaruvi, hokimiyat legitimatsiyasi, ijtimoiy munosabatlar va tarixiy xotirani saqlash mexanizmlarini aks ettiruvchi murakkab intellektual mahsulot sifatida namoyon bo'ladi. Aynan shu turdagi manbalar orqali arxiv yetishmovchiligi sharoitida Qo'qon xonligi tarixini ilmiy asosda tiklash imkoni yuzaga keladi.

Respublika hududidagi arxivlar, ilmiy fondlar va muzey jamlanmalarida yer munosabatlariga oid keng qamrovli hujjatlar saqlanib qolgan bo'lib, ular yerdan foydalanish, sug'orish tizimini tashkil etish hamda ushbu sohada yuzaga kelgan nizolarni mahkama (sud) qarorlari asosida hal etish amaliyotini yoritadi. Mazkur hujjatlar agrar boshqaruv, suv resurslarini taqsimlash va huquqiy tartibni ta'minlash mexanizmlarini tarixiy jihatdan tiklash imkonini beruvchi muhim manba qatlamini tashkil etadi.

Jismoniy-huquqiy xarakterga ega hujjatlar esa jismoniy shaxslar o'rtasidagi mulkiy munosabatlarni qonuniy asosda rasmiylashtirishga qaratilgan bo'lib, ular saqlanayotgan hujjatlar massivining salmoqli qismini tashkil qiladi. Ushbu hujjatlarning aksariyati "sotish" aktlari shaklida rasmiylashtirilib, yer uchastkalari, turar joylar, savdo do'konlari, hunarmandchilik ustaxonalari va boshqa mulk obyektlarini sotish va sotib olish jarayonlarini huquqiy jihatdan qayd etish mazmunini o'z ichiga oladi.

Arxiv va fond materiallari tarkibida vaqf munosabatlariga oid hujjatlar salmoqli o'rin egallab, ular masjidlar, maqbaralar, madrasalar va boshqa diniy muassasalar faoliyatini moddiy jihatdan ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy amaliyotni aks ettiradi. Ushbu hujjatlar orasida vaqf mulklarini ijaraga berish orqali daromad olish, mazkur mablag'lar hisobiga diniy muassasalarni saqlash hamda ularning xizmatchilarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni nazarda tutuvchi rasmiy yozuvlar keng tarqalgan. Bu holat vaqf institutining faqat diniy emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy funksiyaga ham ega bo'lganini ko'rsatadi.

Qozilik mahkamalari faoliyatida tuzilgan hujjatlar mazmunidan ma'lum bo'lishicha, ushbu organlar tomonidan yerni ijaraga berish, meros yoki umumiy mulkni taqsimlash, nikoh shartnomalarini rasmiylashtirish, vasiyatnomalarni tasdiqlash, xayriya mablag'larini hisobga olish hamda vasiylikka oid masalalarni hal etish amaliyoti tizimli ravishda amalga oshirilgan. Shuningdek, nikoh va ajralish bilan bog'liq sud ishlari ko'rib chiqilib, mulkiy nizolar yuzasidan ish yuritish uchun ishonchli shaxslar tayinlangan.

Har bir turdagi qozilik hujjati uchun muayyan shakl va rasmiylashtirish talablari ishlab chiqilgan bo'lib, bitim ishtirokchilarining ismlari, yashash joylari, yer uchastkalari, uy-joylar, do'konlar va boshqa mulk obyektlarining chegaralari aniq





qayd etilgan. Bundan tashqari, qo'shni topografik obyektlar, ishtirok etgan guvohlarning ism-shariflari hamda hujjatni tuzuvchi shaxs haqidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi shart hisoblangan. Barcha hujjatlar qozining muhri bilan tasdiqlangan bo'lib, hujjat chetidagi qo'shimcha yozuvlar ham alohida muhrlangan.

Qozilik mahkamasida har qanday hujjatni rasmiylashtirish jarayonida qozining yozma qarori va hukmi hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Bunday qarorlar muhr bilan tasdiqlanishi, shuningdek, hujjat hoshiyasida qarorga tayanadigan dalil yoki fatvo yozib qo'yilishi shart bo'lgan. Ushbu amaliyot qozilik sud ishlarida huquqiy asoslanganlik, shaffoflik va ijro intizomini ta'minlashga xizmat qilgan. Hujjat boshida, uni tuzish sanasi belgilangan.

Qozilik mahkamasida qabul qilingan yozma qaror yoki hukmning haqiqiy ijro kuchiga ega bo'lishi qat'iy huquqiy-tashkiliy talablarga rioya etilgan holda ta'minlangan. Bunday qarorlar, avvalo, qozining vakolatini tasdiqlovchi rasmiy muhrga ega bo'lishi shart bo'lib, ushbu muhrda qozining ismi hamda uning hukmi amal qiladigan hudud nomi qayd etilgan bo'lishi talab etilgan.

Yozma qaror yoki hukmning hoshiya qismida yuridik jihatdan asos bo'lib xizmat qiluvchi dalillar — tegishli hujjat, undan foydalanilgan manba va mazkur dalil bilan bog'liq shaxs nomi aniq ko'rsatilishi lozim bo'lgan. Bu amaliyot qarorning fiqhiy va huquqiy asoslanganligini ta'minlashga qaratilgan.

Qaror matnida ko'rib chiqilgan ishning mazmuni yoki boshqa hudud qozisiga yo'llanayotgan murojaatning qisqacha mohiyati hamda uning sabablari bayon qilinishi shart hisoblangan. Agar yozma qaror mahkama ishi doirasida qabul qilingan bo'lsa, unda guvohlarning ism-shariflari va da'vogarlar tomonidan bildirilgan da'volar qozining o'zi tomonidan asoslab yozib qo'yilishi talab etilgan. Shuningdek, har bir yozma qarorda hujjat yoki da'vo ishi ko'rilgan joy, sana, oy, kun hamda qozilik mahkamasi kotibining ism-sharifi aniq ko'rsatilishi majburiy shart sifatida belgilangan. Bu ma'lumotlar qarorning rasmiyligini va ijro jarayonida uning aniq identifikatsiya qilinishini ta'minlagan.

Mazkur talablardan kamida bittasining bajarilmasligi yozma qaror yoki hukmning to'liq yuridik kuchga ega bo'lmasligiga olib kelgan. Bundan tashqari, bir hudud qozisi tomonidan chiqarilgan qaror boshqa hududda avtomatik tarzda amalga oshirilmagan. Faqatgina yozma qarorning haqiqiyligi va qonuniyligi tekshirilib, tasdiqlanganidan so'ng, boshqa hudud qozisi tomonidan unga nisbatan tegishli yuridik ish qo'zg'atilgan.

Qozixona hujjatlari sistemali kataloglar (kartotekalar, ro'yxatlar, ko'rsatkichlar)ning jadvallarining bir xil ko'rinishda tuzish uchun mo'ljallangan deya olmaymiz. Alohida tizimlarda namunali tasnifiy bo'linishlari turlicha nomlanadi. Masalan, umumiy (barcha me'yoriy - huquqiy sohasi bo'yicha tasniflash) bir yoki o'zaro yaqin bir qator sohalar bo'yicha tasnif doirasida qo'llanilgan. Ko'rilayotgan masalaga ko'ra namunali tasnifiy hujjat yuritish tartiblari hududiy, davriy, etnik, til va boshqa bir turdagi namunali tushunchalarni aks ettiradi.





O'rta Osiyodagi ikki tilli xalqlarning aralashib yashashi, ular orasidagi bir - birilariga yaqinlashish va integratsiya jarayonlari turli etnik qatlamlar yaratgan madaniyat, fan va ma'naviyat hamda siyosiy hokiyat ozir - oqibatda o'zbek va tojik qardosh xalqlarning deyarli bir vaqtda shakllanishiga olib kelgan.

Qozixona hujjatlari tilxat, vasiqa, vaqfnomalar aniq ko'zlangan bir maqsadga qaratilgan yuridik hujjatlardir. Ularda javobgarlik haqidagi ma'lumotlar ya'ni, ism - sharifi, manzili, hujjat tuzilgan vaqti(yil,oy,kun), hujjatda huquq yoki majburiyati aks etgan shaxs yoshi, haqidagi ma'lumotlar albatta ko'rsatilgan.

Insonlar ijtimoiy hayotning turli sohalarida muloqot jarayonida tildagi lug'aviy birlirlar, grammatik vositalarni qo'llashda bir - birlaridan farq qiladilar, bu so'zlovchining o'ziga xos uslubini keltirib chiqaradi. Shu bois ham mutaxassislar orasida "uslub — bu inson" degan hikmatning yurishi ma'lum ma'noda haqiqatga yaqindir.

Sharqshunos olimlar, ilmiy davra orasida "عاقلان از پی نکته نروند" - Oqilon az peye no'qte naravand. Oqillar nuqta izidan borishmas" degan fikr yuradi. Qozixona hujjatlarini to'ldirishda yoki rasmiylashtirishda agar mirzoning xusnixati chiroyli, svodlilik darajasi yuqori bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda o'sha qo'lyozma hujjatni mutaxassislar tomonida tabdil(o'qish) va tadqiq qilish ancha qulay bo'ladi.

Conclusion. Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, tadqiqot obyekti bo'lgan hujjatlar korpusi jismoniy saqlanish holati jihatidan bir xil emas. Ayrim hujjatlar qisman mexanik zarar ko'rgan, yirtilgan, ezilgan, kemiruvchilar ta'sirida buzilgan yoki tashqi omillar sababli ifloslangan holda bizgacha yetib kelgan. Hujjatlarning muayyan qismi saqlash sharoitlarining yetarli bo'lmagani tufayli chirigan, ba'zilarida bosh yoki oxir qismlar yo'qolgan, ayrim hollarda esa faqat matnning kichik fragmenti yoki muhr izi saqlanib qolgan. Shuningdek, ba'zi rasmiy aktlarda muhrlarning mexanik ravishda yirtilib ketgani kuzatiladi.

Shu bilan birga, hujjatlarni ilmiy tavsiflash jarayonida ularda saqlanib qolgan barcha asl ma'lumotlarni maksimal darajada hisobga olish metodologik jihatdan maqsadga muvofiq deb baholanadi. Xususan, sanalar, manfaatdor tomonlarning ism-shariflari, guvohlar va ulamolar haqidagi ma'lumotlar, shuningdek geografik, topografik va etnografik ko'rsatkichlar tarixiy voqelikni tiklashda muhim manbaiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Musulmon davlatlarida shariat qoidalari asosida sud va notarial funksiyalarni amalga oshirgan qozilar hukmdor tomonidan tayinlangan rasmiy shaxslar sifatida keng vakolatlarga ega bo'lgan. Ular faqat sud ishlarini yuritish bilan cheklanmasdan, notorial xarakterdagi qator huquqiy harakatlarni ham amalga oshirgan institutsional subyektlar sifatida faoliyat ko'rsatgan.

Qozilar tomonidan bajarilgan notarial harakatlar qatoriga quyidagilar kirgan: bitimlarni rasmiy tasdiqlash; vasiyatnomalarni tasdiqlash; er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushiga doir mulk huquqi haqida guvohnomalar berish; mol-mulkni boshqa shaxsga o'tkazishni vaqtincha taqiqlash yoki mazkur taqiqni bekor qilish; merosga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar berish; hujjatlar nusxalari va ulardan olingan ko'chirmalarning haqqoniyligini shahodatlash; ijro xatlarini





rasmiylashtirish. Shuningdek, notorial tarzda tasdiqlangan hujjatlarning dublikatlari hamda reyestrlardan ko'chirmalar berish amaliyoti ham qozilar vakolatiga kirgan.

Mazkur amaliyotlar qozilik institutining nafaqat sud organi, balki huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi, mulkiy va shaxsiy huquqlarni himoya qiluvchi murakkab institutsional tizim sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. А.Урунбаев, Т.Хорикаева, Т.Файзиев, Г.Джураева, К.Исогай. Каталог Хивинских казийских документов XIX-начало XX вв. Ташкент-Киото, 2001, V-стр.
2. **Бобур 3.** Мубаййин / Масъул мухаррир: А. Рустам. – Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2000. – 184 б.
3. Ўз.Рес. ОЎМТВ. Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Тарихий манбашуносликнинг долзарб муаммолари. ТДПУ “ризограф” Т., 2001, 112-бет.
4. А.Урунбаев, Т.Хорикаева, Т.Файзиев, Г.Джураева, К.Исогай. Каталог Хивинских казийских документов XIX-начало XX вв. Ташкент-Киото, 2001, VIII-стр.
5. С.Б.Шадманова, М.М.Юлдашев. ЎзР ФА Тарих институти. Тарихий тадқиқотларнинг методологиясиз азамонавий усуллари. “O‘zbekiston”, Т., 2019, 142-бет.
6. Қўқон давлат музей қўриқхонаси. КП(кирим китоби)-3568, ДП(хужжатли ёдгорлик)-2331, 52/6-коллекция.
7. Қўқон давлат музей қўриқхонаси. КП(кирим китоби)-3568, ДП(хужжатли ёдгорлик)-2331, 52/7-коллекция.
8. Қўқон давлат музей қўриқхонаси. КП(кирим китоби)-3568, ДП(хужжатли ёдгорлик)-2331, 52/9-коллекция.
9. Қўқон давлат музей қўриқхонаси. КП(кирим китоби)-3568, ДП(хужжатли ёдгорлик)-2331, 52/11-коллекция.
10. Муҳаммад Яхёхон Хўқандий. “Хўқанди Латиф маноқиби” (Тазкира). “Мовароуннахр”, 2018, 95-бет.
11. QOMUS.INFO onlayn ensiklopediya (электрон ресурс) (кириш вақти 08.01.2021) (соат 15:43) <https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/stenogramma-uz/>
12. А.Л.Троицкая. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. Издательство “НАУКА” Москва 1968, стр. 9.
13. ЎзРМДА И-19-фонд, 1-рўйхат, 34472-иш, 2-(вақф хужжати)бет.
14. ЎзРМДА И-19-фонд, 1-рўйхат, 34474-иш, 2-(вақф хужжати)бет.

